

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI



"TASDIQLAYMAN"

O'quv ishlari bo'yicha prorektor

R.To'rayev

2024-yil "08" \_\_\_\_\_

Ro'yatga olindi MD70230104-1,07

2024-yil "08" \_\_\_\_\_

JADID ADABIYOTI TARIXI fani

O'QUV DASTURI

**Bilim sohasi:** 200 000 – San'at va gumanitar fanlar  
**Ta'lim sohasi:** 230 000 – Tillar  
**Mutaxassisligi:** 702.30104 – Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti)

Termiz-2024

| Fan/modul kodi<br>JAT1-210              | Fan/modul turi<br>Majburiy |                  | Ta'lim tili<br>o'zbek     |  | Ishlab chiqilgan o'quv yili<br>2024/2025 |                        |
|---|----------------------------|------------------|---------------------------|--|--|------------------------|
| Har bir semestrda<br>fan/modulning nomi | Semestr                    | ECTS - Kreditlar | Haftalik dars<br>soatlari | Auditoriya<br>mashg'ulotlari<br>(soat) | Mustaqil ta'lim<br>(soat)                | Jami yuklama<br>(soat) |
| Jadid adabiyoti tarixi                  | 1-2                        | 5/5              | 4                         | 120                                    | 180                                      | 300                    |
| <b>Jami:</b>                            |                            | <b>10</b>        | <b>4</b>                  | <b>120</b>                             | <b>180</b>                               | <b>300</b>             |

|           |   |
|-----------|---|
| <b>2.</b> | <p style="text-align: center;"><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – magistrantlarda jadid adabiyoti vakillari va ularning asarlarini, adabiyotda yangi tur va janrlarning yuzaga kelishi, tarixiy-adabiy jarayonning taraqqiyot qonuniyatlari va ijtimoiy muhit bilan bog'liqligi, jadidchilik harakatining adabiyotdagi ifodasi o'laroq dunyoga kelgan milliy uyg'onish adabiyotining xos xususiyatlarini tadqiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.</p> <p>Fanni o'qitishning vazifasi – magistrantlar o'zbek adabiyotining tarixiy rivojlanish qonuniyatlari haqida to'liq tasavvurga ega bo'lishi, jadid adabiyoti tarixi va bu davrda yashab ijod qilgan adiblarning ijodiy faoliyati haqida ma'lumotga ega bo'lish, jadid davri dramasi, she'riyati va nasrini o'qish va o'zlashtirish va tahlil qila olish masalalari bo'yicha ko'nikma va malakalarni shakllantirish vazifalarini bajaradi.</p> <p style="text-align: center;"><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p style="text-align: center;"><b>II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>1-mavzu. Kirish. XX asr boshlarida Turkiston: ijtimoiy-siyosiy va intellektual jarayonlar</b></p> <p>Ijtimoiy-siyosiy omillar. Davr voqeligining adabiyotda aks etishi. Muammoning adabiyotshunoslikda o'rganilishi: natijalar, vazifalar. Adabiy-estetik omillar. Davr adabiyotining xos xususiyatlari, rivojlanish tendensiyalari. yechimini kutayotgan ilmiy-nazariy muammolar.</p> <p><b>2-mavzu. O'zbek jadid adabiyoti shakllanishining ijtimoiy-siyosiy va adabiy-estetik omillari</b></p> <p>Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotida jadidchilik g'oyalarning aks etishi. Jadid va qadim masalalari. Davr adabiyotida ijtimoiy-siyosiy mavzularning ifoda etilishi. Mardikorlik adabiyoti. Ozodlik harakatining badiiy adabiyotdagi talqini. Mavzu tadqiqida erishilgan natijalar, yechimini kutayotgan muammolar.</p> |
|-----------|---|

### **3-mavzu. Adabiy aloqalar: o'zbek-turk adabiy aloqalari**

Turkiy xalqlar ma'rifatchiligining vujudga kelishi. Turkiston jadidchiligida turk taraqqiyparvarlarining o'rni. Tanzimot ta'siri. Jadid adabiyotining jahon ma'rifatchiligi bilan munosabati. Turkiyada jadid adabiyotining o'rganilishi. Jadidlarning turk adabiyoti namunalaridan tarjimalari. Turkiyada tahsil, sayohatlar.

### **4-mavzu. Adabiy aloqalar: o'zbek-tatar adabiy aloqalari**

Tatar taraqqiyparvarlarining Turkistonda turli sohalarida olib borgan ishlari, tatar muharrirlari, muallimlari, san'atkorlari tajribasining keng qo'llanilishi. Tatar adabiyoti va o'zbek adabiyoti, adabiyotshunosligi aloqalari.

### **5-mavzu. Jadid adabiyoti va Alisher Navoiy**

Jadid adabiyotida mumtoz adabiyot an'analari ta'siri. Alisher Navoiy ijodiga doir tadqiqotlar, matbuotdagi chiqishlar. Navoiy ijodiga munosabat. Izdoshlik masalasi. An'anaviy mavzu va janrlarga munosabat

### **6-mavzu. O'zbek jadid adabiyotida Sharq va G'arb madaniyati masalalari**

Milliy uyg'onish adabiyoti namoyandalari (I.Gasprali, Fitrat, Cho'lpon va b.) ijodida Sharq va G'arb madaniyatiga munosabatning aks etishi. Ovrupo va musulmon madaniyatiga oid qarashlar tadriji. Sharq va G'arb madaniyatiga oid qarashlarning badiiy adabiyotdagi talqini. Muammoning o'rganilish darajasi.

### **7-mavzu. XX asr boshlari o'zbek she'riyatining yangilanish omillari**

Ijodkor badiiy g'oyasining an'anaviy va yangilangan poetik tamoyillar asosida namoyon bo'lishi. Poetik obrazlardagi yangilanish. Yangi o'zbek she'riyatiga jahon adabiyoti ta'siri. Lirik asarlarda ijtimoiy pafos. Lirikada mavzular ko'lamining kengayishi. Ijtimoiy she'riyat va barmoq vaznining ommalashuvi. Milliy uyg'onish she'riyati o'zbek she'riyati tarixining o'ziga xos bosqichi sifatida.

### **8-mavzu. Jadid she'riyatida badiiy-estetik ideal talqini**

Ijodkor badiiy asarlarida badiiy-estetik ideal talqini. Poetik obrazlardagi yangilanish. Yangi o'zbek she'riyatiga ijodkorlar badiiy-estetik qarashlari. Lirik asarlarda ijtimoiy pafos. Lirikada mavzular ko'lamining kengayishi.

### **9-mavzu. Yangi nasr va uning poetik xususiyatlari**

O'zbek milliy uyg'onish adabiyotida nasr va uning poetikasi. Kichik nasriy janrlarda realistik tamoyillar. Jadid romanlarida ijtimoiy masalalar talqini, ularda o'zbek millati hayotining badiiy ifodalanishi. Nasriy asarlar poetikasi. Mavzu tadqiqi yuzasidan erishilgan natijalar, ilmiy muammolar.

Roman janrining shakllanishi. A.Qodiriy romanlarining yaratilish tarixi va nashri. Roman janrining takomillashuvi. Romanlarda milliy ruh talqini. Romanlarda ma'rifat va jaholat tasviri. Romanlarda ijodkorlar estetik ideali talqini. Romanlarda xotin-qizlar masalasining yoritilishi. Romanlarda obrazlar talqini.

### **10-mavzu. Dramatik asarlarda ijtimoiy hayot in'ikosi**

Jadid adabiyotida drama. Dramatik asarlarda davr voqeligi. Jadid dramalariga xos tamoyillar. Yangi dramalarda konflikt masalasi. Dramatik asarlardagi obrazlar tabiati. Dramada realizmga xos xususiyatlar. Dramatik asarlarda ma'rifat talqini. Yangi mavzularning maydonga kelishi, ular talqinidagi o'ziga xoslik. Janrlardagi yangilanish. Mavzuga doir ilmiy-nazariy muammolar. O'zbek teatr san'atining maydonga kelishi.

Teatrlardagi ilk sahna asrlari namoyishi. Sahna san'ati haqida matbuotdagi ilk taqrizlar. Taqriz janri xususida. Teatr va dramatik asarlarning adabiyotshunoslikdagi talqinlari.

### **11-mavzu. Turkistonda milliy matbuot va adabiy jarayon**

Milliy matbuotning shakllanishi va tadriji, adabiy jarayonga ta'siri. Yangi davr adabiyotshunosligining yuzaga kelishi. Vaqfli matbuot va adabiy jarayon, adabiy aloqalar mushtarakligi masalasi.

### **12-mavzu. Matbuot va umumadabiy turkiy til taraqqiyoti**

Vaqfli matbuot sahifalarida til masalasiga doir chiqishlar. Gasprinskiyning "o'rta til" g'oyasi. Jadidlarning milliy til sofligi masalasidagi bahslari. Behbudiy, Gasprinskiy, Ashurali Zohiriy, Vasliyning til masalasiga doir bahslari.

### **13-mavzu. Vaqfli matbuot tilining badiiy asar poetikasiga ta'siri**

Badiiy asarlarning gazeta hamda kitob variant o'rtasidagi tafovutlar. Usmonlichaning ta'siri. "Oyna", "Al-Isloh" jurnallari, "Sadoyi Turkiston", "Sadoyi Farg'ona" gazetalar tili.

### **14-mavzu. XX asr boshlaridagi adabiy bahslar va ularning estetik tafakkur rivojidadagi o'rni.**

"Oyna", "Al-Isloh" jurnallari, "Sadoyi Turkiston", "Sadoyi Farg'ona" gazetalar va boshqa matbuot nashrlaridagi adabiy bahslar. Ularda ko'tarilgan adabiy-estetik va nazariy-metodologik muammolar. Adabiy-estetik bahslarga yondashuv mezonlari. Ularning adabiy-estetik tafakkur rivojiga qo'shgan hissasi.

### **15-mavzu. XX asr o'zbek adabiy tanqidchiligi shakllanishi**

Turkistonda matbuot va tanqidning yuzaga kelishi. Sahna asarlariga yozilgan taqrizlar. Behbudiyning "Tanqid saralamoqdur" maqolasi. Matbuotda felyeton rukni va uning adabiy tanqidchilik shakllanishida o'rni. Fitratning adabiyotshunoslik faoliyati. Adabiy-nazariy qarashlardagi yangilanish. Vadud Mahmudning adabiy-estetik qarashlari. Muammoning o'rganilish darajasi: ilmiy natijalar, vazifalar.

### **16-mavzu. Jadid adabiyotida tarjimachilik faoliyati**

Jadid adabiyotida G'arb hamda Sharq adabiyotidan qilingan tarjimalar. Rus adabiyotidan tarjimalar. Vaqfli matbuotda she'riy va nasriy tarjimalarning berilishi

### **17-mavzu. Jadid adabiyotida millat va milliyat masalalarining yoritilishi**

Jadid adabiyotida millat va milliyat masalasi. Badiiy asarlarda millat taqdiri. Jadid ziyolilari maqolalarida millat talqini. Sharq va G'arb adabiyotida millat va milliyat masalalari.

### **18-mavzu. Jadid adabiyotini ilmiy o'rganish bosqichlari**

Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti ilmiy maktabi. Professor B.Qosimov – ilmiy maktab asoschisi. Davr adabiyotini o'rganishga doir nazariy-metodologik yangiliklar, ularning amaliyotga tatbiqi. Ilmiy maktabning adabiy manbaga adabiy-estetik yondashuv mezonlari, tadqiq usullarining o'ziga xosligi. Tadqiqot yo'nalishlari. Ilmiy maktab an'analarning davomchilari, erishilgan natijalar.

### **19-mavzu. Istiqlol davri jadidshunosligi**

Mustaqillik davrida jadid adabiyotiga munosabat. Istiqlol davri jadidshunosligiga oid ilmiy asarlar tahlili. Jadid adabiyotining sho'rolar davrida o'rganilishi. Jadidlar

asarlarda millat va milliyat masalasi. Jadidshunos olimlar ilmiy asarlari talqini. Professor Begali Qosimov ilmiy maktabi.

### **III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

*amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:*

1. Turkistonda jadidchilik harakati, uni paydo qilgan omillar va tarixiy sharoit.
2. Ma'rifatparvarlik va jadidchilik: ilmiy muammolari
3. Jadid adabiyoti yuzaga kelishining ijtimoiy-siyosiy va adabiy-estetik omillariga oid ilmiy adabiyotlarni o'rganish.
4. Jadid adabiyoti: an'ana va yangilikning uyg'unlashuvi
5. . Jadidchilik harakatining adabiyotga ko'chib o'tishi.
6. Jadidchilik va jadid adabiyotini ilmiy o'rganish bosqichlari va uni davrlashtirish yuzasidan ilmiy asarlar bilan tanishish.
7. . Turkistonda vaqtli matbuot va adabiyot
8. XX asr boshidagi adabiy bahslar va ularning adabiy-estetik tafakkur rivojidadagi o'rni haqidagi ilmiy-nazariy adabiyotlar tahlili.
9. Jadid adabiyotining mavzu va shakl yangilanishlari.
10. Vaqtli matbuotda berilgan tarjima asarlar tahlili
11. Teatr va adabiy tanqidning shakllanishiga doir asarlarni o'rganish.
12. Jadid adabiyotiga kirib kelgan badiiy tur va janrlar.
13. Jadid nasrida adabiy-estetik ideal muammosi.
14. Jadid she'rriyatida ma'rifat g'oyalari talqini
15. Jadid adabiyotida Sharq va G'arb madaniyati masalalari talqin etilgan ilmiy asarlar ustida ishlash.
16. Jadid adabiyotining xorijda tadqiq qilinishi
17. Kichik nasriy asarlarda davr voqeligining ifodalanishi
18. Dramatik asarlarda ma'rifatparvarlik g'oyalari talqini
19. Badiiy publitsistikaning shakllanishiga doir ilmiy asarlarni o'rganish
20. XX asr boshlari adabiyot darsliklari va adabiyotshunosligiga doir manbalar bilan tanishish

### **IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

*Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:*

1. Jadid adabiyoti shakllanishida adabiy maktablarning o'rni haqida materiallarni talqin qilish.
2. Jadid adabiyotida nasr va nazm poetikasiga doir adabiyotlar tahlili.
3. Jadidchilik va milliy matbuot. "Oyna" jurnallarida adabiyot materiallari. .
4. Jadid she'rriyatining o'ziga xos xususiyatlari.
5. "Taraqqiy", "Shuhrat", "Sadoyi Turkiston", "Sadoyi Farg'ona" materiallari tabdili

|    |   |
|----|---|
|    | <p>6. Xorijlik tadqiqotchilar: Ingeborg Baldauf (Germaniya), Hisao Komatsu (Yaponiya), Adib Xolid (Amerika), Yavuz Akpınar (Turkiya)ning Turkiston jadidchiligiga doir tadqiqotlarini o'rganish.</p> <p>7. Ismoil Gaspıralining badiiy asarlari tahlili.</p> <p>8. Behbudiy ijodiy merosi. Publitsistik maqolalari tahlili.</p> <p>9. XX asr boshlari jadidlar ijodida ta'lim islohi masalasi.</p> <p>10. Abdirashidov Z., Egamqulova N. "Borar yo'ling Turkistondir..." asarini o'rganish</p> <p>11. Абдирашидов З. "Исмаил Гаспринский и Туркестан в начале XX века: связи – отношения – влияние" asaridan tarjima.</p> <p>12. Abdirashidov Z. "XX asr boshlarida Turkiston: ijtimoiy-siyosiy va intellektual jarayonlar" kitobiga taqriz yozish</p> <p>13. Boltaboyev H. "Fitrat va jadidchilik" asarini tahlil qilish</p> <p>14. Abdurashidxonov M. Men sendamen (asarlar). (Nashrga tay. Sirojiddin Ahmad) kitobini o'rganish</p> <p>15. Xolid, Adibning "O'zbekiston tavalludi"ga taqriz</p> <p><i>Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:</i></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. O'zbek va dunyo jadidshunosligi qiyosiy tahlilini amalga oshirish.</li> <li>2. Jadid matbuoti nashrlarida berilgan materiallarni tabdil qilish.</li> <li>3. Berilgan manbalarni tarjima qilish.</li> <li>4. Jadid adabiyoti namunalari taqriz yozish</li> <li>5. Anjumanga tezis tayyorlash</li> <li>6. Amaliy mashg'uloti mavzulariga taqdimot tayyorlash</li> </ol> |
| 3. | <p style="text-align: center;"><b>V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b></p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- jadid adabiyotining milliy madaniyatimiz tarixi va takomilidagi o'rni, adabiy hodisalar, badiiy va ilmiy asarlarning jamiyat, millat va shaxs hayotidagi ahamiyati, she'r sistemasining umumiy qonuniyatlari, o'zbek milliy uyg'onish adabiyotida qo'llangan timsollar va ramzlar mohiyatini anglash, milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti shakllanishining ijtimoiy-tarixiy va adabiy-estetik omillar haqida <i>bilimga</i>;</li> <li>- o'zbek adabiyotiga xos yangi janrlar va ularning taraqqiyot tamoyillari, she'riyatda vazn, poetik janrlar va obrazlarning yangilanish qonuniyatlari, taraqqiyot omillari xususiyatlari va ulardan foydalana olish <i>ko'nikmasiga</i>;</li> <li>- yangicha adabiy-estetik tafakkurning yuzaga kelishi sharoiti va sabablarini, davr adabiyotiga oid she'riy, nasriy va ilmiy asarlarni tahlil qilish <i>kasbiy kompetensiyalariga</i> ega bo'ladi.</li> </ul>  |
| 4. | <p><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> </ul>  |

|    |   |
|----|---|
|    | <ul style="list-style-type: none"> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• amaliy mashg'ulotlar (aqliy hujum, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• taqdimotlar qilish;</li> <li>• individual loyihalar;</li> <li>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> </ul>  |
| 5. | <p style="text-align: center;"><b>VII. Talabalarning kreditlarni olish tartibi</b></p> <p>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan "OTMlarda o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida Nizom"ning 15- va 30-bandlariga asosan "Jadid adabiyoti tarixi" fanidan 1-2-semestrda 300 soat <u>o'quv yuklamasini o'zlashtirgan</u>, fan dasturi (sillabus)da belgilangan baholash tartibiga ko'ra <u>ijobiy baholanib, kasbiy kompetensiyalarni yetarli darajada egallagan</u> talaba 1-2-semestrda 10 kredit beriladi.</p> <p>Talaba belgilangan <u>ta'lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda kreditlar berilmaydi.</u></p> <p>Talabalarning bilimini baholash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida belgilanadi.</p> <p><b>Talabalarning bilimini baholash mezonlari:</b></p> <p><b>5 (a'lo) baho</b> - talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda;</p> <p><b>4 (yaxshi) baho</b> - talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda;</p> <p><b>3 (qoniqarli) baho</b> - talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi hamda fan haqida tasavvurga ega deb topilganda;</p> <p><b>2 (qoniqarsiz) baho</b> - talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda.</p> |
| 6. | <p style="text-align: center;"><b>Asosiy adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Abdirashidov Z. Turkistonda jadidchilik. –Toshkent: Akadernashr, 2023</li> <li>2. Qosimov B. va boshq. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. Darslik. –T.: Ma'naviyat, 2004.</li> <li>3. Ahmedov S. Milliy hurriyat adabiyoti. –T.: Info Capital Group, 2018</li> <li>4. Egamqulova N. XX asr boshlari adabiy jarayoni muammolari. –Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2022</li> </ol>   |

### Qo'shimcha adabiyotlar

1. Abdirashidov Z., Egamqulova N. Borar yo'ling Turkistondir... –T.: “Akademnashr”, 2023.
2. Абдирашидов З. Исмаил Гаспринский и Туркестан в начале XX века: связи – отношения – влияние. –Т.: Akademnashr, 2011.
3. Abdirashidov Z. XX asr boshlarida Turkiston: ijtimoiy-siyosiy va intellektual jarayonlar. –Tr.: Soncag, 2019. Boltaboyev H. Fitrat va jadidchilik. –T., 2007.
4. Abdurashidxonov M. Men sendamen (asarlar). Nashrga tay. Sirojiddin Ahmad. –T.: Info Capital Group, 2019.
5. Behbudiy M. Tanlangan asarlar I-II. Nashrga tay. Sirojiddin Ahmad. –T.: Akademnashr, 2018.
6. Dolimov U. Is'hoqxon Ibrat. Istiqlol fidoyilari. –T.: Sharq, 1994
7. Fitrat. Tanlangan asarlar. 2-jild. –T.: Ma'naviyat, 2000
8. Ismoilbek Gasprinskiy. Hayot va mamot masalasi. Nashrga tay.: B.Qosimov, Z.Abdirashidov. –T.: Ma'naviyat, 2006.
9. Ismoil Gasprali. Dorur rohat musulmonlari. –T.: “Akademnashr”, 2023.
10. Jabborov N. Ma'rifat nadir. –T.: Ma'naviyat, 2010.
11. Jadid kulliyoti (Tuzuvchi Shahnaza Nazarova). –T., Zabarjad media, 2023.
12. Jamolova D. Turkiston va Sharq mamlakatlari taraqqiyparvarlarining o'zaro aloqalari. –Toshkent, 2023.
13. Karimov B. Abdulla Qodiriy. –T., Fan, 2006.
14. Pardayev Q. O'zbek milliy uyg'onish adabiyotini o'rganishda matbuotning o'rnini. –T.: Muharrir, 2012.
15. Qosimov B. Uyg'ongan millat ma'rifati. –T.: Ma'naviyat, 2011.
16. Ризаев Ш. Жадид драмасы. –T.: Шарқ, 1997.
17. Soatova G. “Maorif va o'qitg'uvchi” jurnalida adabiyot materiallari. –T.: Bookmany print, 2023.
18. Xolid, Adib. O'zbekiston tavalludi. –T.: “Akademnashr”, 2022.

### Axborot manbalari

1. <http://www.kutubxona.uz>
2. <http://www.literature.uz>
3. <http://www.ziyonet.uz>
4. <http://www.alishernavo.uz>

7. Fan dasturi Universitet Kengashining 2024-yil 2023-dagi 1-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

8. **Fan/modul uchun ma'sullar:**

Zaynabidin Abdirashidov – Anqara Hoji Bayram Vali universiteti Adabiyot fakulteti Zamonaviy turk tillari va adabiyotlari bo'limi; filologiya fanlari doktori,



|    |   |
|----|---|
|    | <p>professor</p> <p>Veli Savash Yelok – Anqara Hoji Bayram Vali universiteti Adabiyot fakulteti Zamonaviy turk tillari va adabiyotlari bo‘limi; filologiya fanlari doktori, dotsent</p> <p>Egamqulova N. – Termiz davlat universiteti “O‘zbek adabiyotshunosligi” kafedrası dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori</p> |
| 9. | <p><b>Taqrizchilar:</b></p> <p>Karimov B. – ToshDO‘TAU, “Adabiyot nazariyasi va zamonaviy adabiy jarayon” kafedrası mudiri, filologiya fanlari doktori, professor</p> <p>Yuldashev N. – Termiz davlat universiteti “O‘zbek adabiyotshunosligi” kafedrası dotsenti, filologiya fanlari nomzodi</p>                                     |